

Sport oyligi

Toshkent moliya instituti oliy o'quv yurtlararo sport majmuasida 2019 yil may oyi "Sport oyligi" davomida hamda "9 may - Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Bo'sh vaqtimiz - bilim va sport bilan birga" shiori ostida TIQXMMI hamda Toshkent moliya institutlarining talaba-yoshlari hamda professor o'qituvchilari terma jamoalari o'rtasida mini-futbol bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi. Musobaqa qiziqarli va sermazmun tashkil etildi.

Mazkur musobaqada talaba-yoshlar o'rtasidagi bellashuvda "Irrigator" terma jamoasi, "Moliyachi" terma jamoasi ustidan 3:1 hisobda g'alaba qozongan bo'lsa, professor o'qituvchilari o'rtasidagi bellashuvda tomonlarning kuchlari teng bo'lib, do'stlik g'alaba qozondi. Musobaqada faol ishtirok etgan, ajoyib va mazmunli o'yin ko'rsatgan har ikkala institut jamoa a'zolariga minnatdorchilik bildiramiz. Hamkorligimiz davomiy bo'lsin!



"Jismoniy madaniyat va sport" kafedrası mudiri M.Norqobilov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov